


Uzbekistan Airways Sky Camp Bo'stonliq 2025 sport festivalida ishtirok etdi

2025 28 April

26-27 aprel kunlari Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanining so'lim tog' yonbag'irlarida faol dam olish va tabiat ixlosmandlarini birlashtirgan yorqin voqea – "Sky Camp Bo'stonliq 2025" xalqaro sport festivali bo'lib o'tdi.






Uzbekistan Airways xodimlari musobaqalarda aviakompaniyani munosib tarzda taqdim etib, quyidagi sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritdilar:

- Bortkuzatuvchi Olga Morozova 5 kilometrlik treyl masofasida umumiy hisobda 1-o'rinni qo'lga kiritdi;
- Muhandis-nazoratchi Alisher Rajapov 20 kilometrlik treyl masofasida o'z yosh toifasida 2-o'rinni va umumiy hisobda 12-o'rinni egalladi;
- Uzbekistan Airways Technics iqtisodchisi Natalya Nosirova 5 kilometrlik treyl masofasida o'z yosh toifasida 3-o'rinni zabt etdi.



Aviakompaniyaning boshqa xodimlari shuningdek, sport va ongli amaliyotlarning noyob uyg'unligi: tabiat bilan uyg'unlikda yugurish, yoga va kuchlarni tiklash uchun meditatsiya bo'lib xizmat qiladigan – ZEN dasturida faol ishtirok etishdi.



Hamkasblarimizni ulkan yutuqlari bilan tabriklaymiz va yangi zafarlar tilaymiz.
Uzbekistan Airways jamoasi siz bilan faxrlanadi!